

MARKAZIY OSIYO JADIDLARI OTASI

Xikmatillayeva Shoiraxon Shokirboy qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Tarix (islom tarixi va manbashunosligi)

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Toxir Xatamov

Annotatsiya: *Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston aholisini ilm-ma'rifat-ila ma'naviy ongini boyitishga qaratilgan maqolalari tahlili.*

Kalit so'zlar: *Maorif, Turkiston, Tarjimon gazetasi, ozodlik, ma'rifatparvarlik, Padarkush asari, millat.*

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, Amir Shohmurod zamonida (1780-1785 yillar) Samarqandga kelib qolgan. Oiladagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. [1:105] Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sir o'tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so'zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan "Hidoya" ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o'z taqdirida katta rol o'ynaganini alohida qayd etgan. Behbudiy 18 yoshida qozixonada Mirzalik qila boshlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullandi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganib islom tarixi va nazariyasini bilan shug'ullandi. 1899-yilda hajga bordi va Muftiy unvoniga ega bo'lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo'ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar so'zsiz uning dunyoqarashida buriilish yasadi. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. O'sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turdi. Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil G'aspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo'lgan "Tarjimon" gazetasi M.Behbudiyini buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi darajasiga ko'tardi. Keyinchalik Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, boshqa yurtlarning madaniyati bilan ham tanishadi. Adib ma'rifat uchun birgina maktab bilan kifoyalanib qolmay, balki dunyo va zamon voqealari bilan ham tanishib bormoq, millat va Vatanning axvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq, kerak, deb bilar edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z kabohatini ham malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zaruriyat Behbudiyini teatr va matbuot sari yetaklaydi „Padarkush“ pyesasi maydonga keladi. Biroq uni dunyo yuzini ko'rishi oson

kechmaydi. Unda Turkistonlik yoshlarni dunyoviy bilimlarni egallashga, o'qitishga targ'ib qilingan edi. Chor hukumati mustamlakasi Turkistonining ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishdan manfaatdor emas edi. Mazkur asar o'z davrida A.Qodiriyning „Baxtsiz kuyov“, Mirmuxsin Fikriyning «Befarzand Ochildiboy», Hamza Hakimzodaning “Yangi saodat” kabi asarlarning yaratilishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa 1911-yilda yozilgan „Padarkush” dramasi 1913-yilda bosilib chiqildi. Pyesa bir yildan so'ng sahna yuzini ko'radi. Bu asarning o'z davrida adabiy xarakatchilikka ko'rsatgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Bundan tashqari Bexbudiy o'zbek va tojik tillarda ikki yuzdan ortiq maqola va asralar yaratgan. Bexbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor bergan. Navoiydan keyin bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu soxaning xos xususiyatlarini tayin etib adabiyotda uning teng xuquqligi masalasini o'rta qo'yadi “Tanqid saralamoqdur” (1914 - yil 27 -son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag'ishlashgan jiddiy maqolalaridan biri.

Behbudiyning „Muhtaram yoshlarga murojat”(1914-yil 41-son) maqolasida bugungi kun uchun ham muhim bo'lgan ayrim masalarga to'xtalganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada „Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tavassult va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot g'ayratli yoshlarning harakoti maorifparvaronalari soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan bo'lgan mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarimizni marja va umidgoh tutib, alardan yordam soraymiz (mollari yoki so'zlari ila millat foidasiga yordamlari tekkan ba'zi ulamo-yu ag'niyomiz ham yoshlar qatoridadurlar)”

Turkistonni - rivojlantiruvchi yagona kuch yoshlar ekanligini ta'kidlab kelmoqda, asosiy muammomiz esa yoshlarni tarbiyalashda ustozlarni yetishmasligi, o'quv binolarni qurish zarurligi va shunga o'xshash bir qator muammolar sanab o'tilgan. Bugungi kun statistikasiga ham e'tibor bersak O'zbekiston aholisining 60% dan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.[2:91] bu shuni anglatadiki hukumat qarorlaring asosi yoshlarga qaratilishi, va sanab o'tilgan muammolar ustidan yakdil kurashishimiz kerakligini.

Behbudiy: „Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo'lda mol-u jonlarini fido etmoqg'a hozir turarlar. Mana, hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishlar diyonat va milliyat hissiyoti natijasidir. Endi, bizni Turkistonda munday hissiyotlar qayda? Modomiki, biz turkistoniylar ilm-u maorifdan haqqincha istifoda etmaymiz. Fazoyili insoniyadan sanalgan shaylar qanday hosil bo'lur? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz?

Bizlarda bir fazilat bor bolsa, ul ham faqat taassuboti johilonadan iboratdur. Demak, bizlar hozirgi nimokla diyonatimizni yolg'uz taassub soyasida saqlab turubmiz. Lekin ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab bo'lmas. Chunki zamonamiz shunday zo'rki, ozgina fursatda churuk taassubotimizni asosidan qo'parub

tashlaydur. Shuning uchun zamonaning muxlik asbobig‘a qarshu muqovamat etadurgon bir narsa bor bo‘lsa, ul-da maorifdur.

Maorif masalasi har davrning eng muhim masalasi bo‘lib, yosh avlodni fikrlash doirasini kengaytirish, ularni ilim olishga qiziqtirish va shu kabi masalalar ustuvorligi oshirishga qaratilgan islohotlar olib borishimiz zarurligini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi ta‘lim yutuqlarini, texnologiyalarni, tajribali o‘qituvchilarni mamlakatimizga jalb qilish orqali Ta‘lim tizimimizni rivojlatira olishimiz mumkin. Yoshlarimizning ongini har xil qo‘shirnoq ichidagi yovuz niyatli kimsalardan saqlagan holatda islohotlar o‘tkazishimiz zarurdir.

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, ilgari mahalliy xalq Turkistonda fors va turkiy-o‘zbek tillardan keng foydalanishgan. Maktablarda fors, arab va turkiy-o‘zbek tili asosiy o‘qish tili bo‘lgan. Ammo ruslar o‘lkani o‘z hukumronliklari ostiga olishlari natijasida barcha savdo, sanoat va davlat ishlari rus tilida yuritila boshlangan. Rus tilini biladigan kishilar kamligi bu sohadagi mutaxassislarni Turkiston mahalliy xalqi orasida yetishmasligiga olib kelgan. Shuningdek, maorif tizimi sohasida ham bu holat kuzatila boshlangan. Vaziyatni to‘g‘ri baholagan jadidchilik harakatining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Har bir taraqqiyparvar bilsunki, bizni sababi takomili hayoti ijtimoiyamiz usuli jadida maktablari ruscha o‘qimoq va hukumat maktablarig‘a bola bermoq va madrasadagi usuli tadriski Misr madrasalaridek va Hijoz jome‘laridek isloh qilmoq ila bo‘lur...” [3:374] – deb zamona ilm-fanidan xabardor bo‘lishga chaqirgan.

XX asr boshlarida siyosiy va harbiy sohani bolsheviklar egallab olgach dinga qarshi kurashni kuchaytirgan. Maorif sohasida hukumatning olib borgan bu qat‘iy nazorat va cheklov siyosati ma‘rifatparvarlarning noroziliklarga sabab bo‘lgan. Misol uchun, Abdulhamid Cho‘lpon Xo‘jandda Narkompros tomonidan belgilangan sakkiz maktab o‘rnida o‘n to‘rt maktab ochilgani uchun qattiq hayfsan olgan holatni nazarga tutib quyidagi sherini bitgan:

...Maktab nima? O‘qish nima? O‘ylovchi yo‘q,
Maktablarning borini ham yopmoqdalar.

“Bilim”, “hunar” so‘zlarini so‘zlovchi yo‘q,
Yosh va qari “Xudoyim” deb yotmoqdalar.[4:4]

Og‘ir turmush, oiladagi moliyaviy yetishmovchilik, qat‘iy tartib va nazorat yoshlarni maorifdan yiroqlashishini ta‘minlagan. Bu jarayonlarni kuzatib, achinish bilan tilga olgan jadidchilik harakatining atoqli rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Har kimg‘a ma‘lumki, bizni Turkiston musulmonlarini yuzin 99 %i butun ilmsizdir” [3: 367] – deb yozgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmsizlikning qishloq va sahrolardagi ahvoli bundanda achinarli bo‘lganligini alohida ta‘kidlab, xotin qizlar haqida: “Vale bu kun Turkiston musulmalarini yuzidan birini zaruriyoti diniyani bilishi ma‘lum yo‘q” [3: 368] – deb ta‘kidlagan.

Xulosa o‘rnida e‘tirof etish lozimki, o‘tmishda dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ta‘sir qilgan ona Vatanimiz maorif tizimi XX asr boshlarida sun‘iy tarzda tamomila susaytirilgan. Ammo, Turkiston o‘lkasida xalq ta‘limi doimo jamiyat ilm ahli diqqat markazida bo‘lgan. Holat qanchalik og‘ir sharoitda bo‘lishiga qaramay imkoniyatga ega yoshlar bilim olishga intilgan. Ma‘rifatparvarlar barchani maktablarda fors, arab va turkiy-o‘zbek tillarida tahsil olish bilan birga xorij tillarini xususan, rus tilini ham o‘rganib

zamona siyosiy va madaniy hayotidan xabardor bo'lishga chaqirganlar. Xalqning ilmiy salohiyatini oshirmay jamiyatning illatini bartaraf etolmasliklarini shuningdek, o'sha davrda o'ta qaltis bo'lsada mustaqil davlat tuza olmasliklarni bilishgan.

Turkiston maorifi ishlarida bo'lg'on o'rtog' va o'g'lonlarim! Men o'zim garchi bandi bo'lsam-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga vasiyat qilib o'taman. Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo'lida ishlay turg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'yungizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar! Bizdek "maorif qurbonlarini yo'qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Mumkin qadar ko'proq yangi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi!"[5:5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳасанов Б. Махмудхужа Бехбудий-миллий уйғониш ҳаракатининг асосчиси.- Т.:Complex Print, 2019.
2. N.Jo'rayev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi.-Т.:1-nashri G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Mahmudxo'ja B. Tanlangan asarlar. J.1. – Т.: Akadernashr, 2018.
- 4.Ergashev S. Xalq maorifiga nazar.-Т.:Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2021
5. <https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6593-behbudiyning-vasiyati.html>